

Ona Vatan

Miltiqboy Xonnazarov



**Maqollarni o'qing va
ma'nosini tushuntirib bering.**

**Ona yurting – oltin beshiging.
Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni.**



O'qing.

Dunyoda onam aziz,
Onamday Vatan aziz.
Bu olamda jon aziz,
Jondan ham Vatan aziz.
Onajonim bag'rida
O'ynab-kulib yayrayman.
Ona Vatan qo'ynida
Bulbul bo'lib sayrayman.
Onam hamda Vatanni
Ko'zimdayin asrayman.
Ikkisin hurmatini
Yuragimda saqlayman.
Kelajakda, albat – men
Ulug' olim bo'laman.
Vatanimning dong'in* men
Dunyoga tarataman*.





dong – mashhurlik
dunyoga taratmoq – tanitmoq



1. Shoir o'z Vatanini kimga qiyoslagan? Ushbu satrlarni o'qing.
2. Inson o'z Vatanini dunyoga qanday tanitishi mumkin?
3. Vatanni asrash deganda nimani tushunasiz?
4. **Yayrayman** so'ziga qofiyadosh bo'lgan so'zlarni o'qing.



She'dan rasmlarga mos satrlarni topib o'qing.



She'ni yod oling.

